



SO'Z O'ZLASHUVI TARIXIDAN

X.T.Raximov

Namangan davlat chet tillari instituti

Nemis va fransuz tillari kafedrası

katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Har bir o'rganilayotgan sohaninig tarixi bo'lganidek, so'z o'zlashuvi ham o'z tarixiga ega. Ushbu maqolada so'z o'zlashuvi tarixi va o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: so'z o'zlashuvi, chet so'zlar, qabul qiluvchi til, ilmiy ishlar, o'zbek tili, tilshunoslik, dolzarb muammolar, faollashtirish, ta'sir ko'rsatmoq

ANNOTATION

Just like every field of study has its own history, the study of language also has its own history. This article outlines the history of linguistics and the work being done in relation to borrowing words from other languages into Uzbek, as well as other aspects of language exchange.

Keys words: lexical borrowing, foreign words, receiving language, scientific works, Uzbek language, linguistics, current issues, activation, is influencing.

Har bir o'rganilayotgan sohaninig tarixi bo'lganidek, so'z o'zlashuvi ham o'z tarixiga ega. Qariyb uch yuz yildirki¹, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, chet so'zlarning boshqa tillarga o'zlashish sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash masalalari

¹ Heller K. Das Fremdwort in der deutschen Sprache der Gegenwart. Leipzig, s.7



ko'plab tilshunos olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Biror bir til yo'qki, boshqa tillardan so'z o'zlashtirmagan bo'lsa? Ushbu masala bilan esa bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha tilshunoslar shug'ullanib kelishmoqda. Ayniqsa, chet so'zlarning o'zlashayotgan tilning adabiy va so'zlashuv nutqiga o'tib, hayotiy va ilmiy- zaruriy narsa va hodisalarini nomlashi, qabul qiluvchi til qonuniyatlariga tezda singib ketishi, o'zlashgan til egalariga chet so'z ekanligi bilinmay xuddi ona tilinikiday bo'lib, moslashib ketishi kabi ob'yektiv faktlar so'z o'zlashuvi masalasini tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

Mustaqilikka erishganimizdan so'ng bu masalaga jiddiy yondashildi . So'z o'zlashuviga bag'ishlangan katta ilmiy ishlar, yirik tadqiqotlar yuzaga keldi, bunga misol qilib besh tomli o'zbek tilining izohli so'zlar lug'ati chop etilganligini keltirishimiz mumkin.

Chet va o'zlashgan so'zlar soni va hajmi , harakteri va mavzuiy tuzilishi , estetik o'zgarishlar assimilatsiyasi xususiyati, stilistik vazifalari kabi bir qator muammolar hozirgi o'zbek tilshunosligining tadqiqot ob'yekti bo'lib, so'z o'zlashuvi tarixi, sabablari va qonuniyatlarini keng tahlil qilishga harakat qilinmoqda.

G'arbiy Yevropa tillarining rus tiliga shu tillar va ularning rus tili orqali o'zbek tiliga ta'siri haqida ulkan ishlar qilinib, sezilarli yutuqlarga erishildi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tillarning o'zaro munosabati va so'z o'zlashuvi faqat og'zaki muomalada emas balki, qardosh va chet el adabiyotlarining mutolaasida va tarjimasi faoliyatida ham keng ahamiyatga ega. Bundan tashqari o'zbek tili bilan yaqin aloqada bo'lgan tillarning o'zbek tili taraqqiyotiga ta'siri o'sha tillardan o'zbek tiliga qabul qilingan so'z va formalar , ma'no va statistik ma'lumotlarning miqdorida emas , balki o'zbek tilining o'z imkoniyatlarini ham faollashtirilganida, ijodiy kuzatayotganida ham ko'rilmogda. Bu masalalar o'zbek tilshunosligidagi anchadan beri olimlarning diqqatini o'ziga tortib keldi. Sharqshunos olim



A.K.Borokovning «O'zbek adabiy tili 1905-1917 yillarda» nomli yirik asarida olim so'z o'zlashtirishi masalalariga o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib katta e'tibor berdi. Biror bir xalqlarning aqliy kamolotini aniqlash uchun uning tilini o'rganishning o'zi yetarlidir, agar tilda biror fan sohasiga oid iboralar bo'lsa, bu fan ayni shu tilda gapiradigan xalq tomonidan yaratilgan deb komil ishonch bilan aytish mumkin. Va aksari, agar biror bir narsa nomi mazkur xalqning o'ziniki bo'lmay boshqa xalq tilidan olingan bo'lsa demak o'sha predmetning o'zi ham shu haqida bo'lmagan. M.Po'latov, R.Doniyorov, N.Rasulov, G.Muhammadjonova va S.Akbarovlar o'zlarining yuqorida nomlangan ilmiy ishlarida rus tili va o'zbek tilining o'zaro aloqalarining atroflicha o'rganib chiqib, rus tili orqali tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan til birliklarini o'rganishning alohida ta'kidlashdi. Bu borada dastlabki ishlardan biri U.Usmonov va R.Doniyorovlar ning «Ruscha international so'zlarining lug'ati- bo'lib, ular o'zlashma so'zlarning lug'aviy ma'nolarini talqin etishdi. O.Usmonov va SH.Hamidovlarning» O'zbek tili leksikasi tarixidan (1981)- nomli asari chop etildi. Bu yirik tadqiqot XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o'zbek tili lug'ati tarkibida yuz bergan o'zgarishlarning xususan rus tilining o'zbek tili taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritish masalasiga bag'ishlandi.

Qayd qilingan ishlarda asosan rus tilining o'zbek tiliga ta'siri va hamkorligi masalalari o'rganildi. O'zbek tiliga rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelayotgan so'zlar atroflicha o'rganilmagan. O'zbek tilshunosligi uchun» bu masalalar dolzarb bo'lib, ularga ilmiy jamoatchilikning diqqat e'tiborini jalb qilish kerak. Ular ilmiy nazariy nuqtayi nazardan hal etilib o'zbek tiliga chetdan kirgan so'zlarning o'zlashtirishini tartibga tushirish lozim-. Bu esa avvalo so'z o'zlashuvi sabablarini o'rganishni taqozo qiladi.

Dunyo tillarining umumiy soni ham oz emas. Hozirgi davrda 5000 dan ortiq til borligi qayd e tildi. Bu tillarning har birining o'z tarixi, taqdiri jamiyat hayotida tutgan o'rni va mavqeyi bor. Bundan tashqari ular o'zaro munosabat, hamkorlik,



bir-biridan so'z qabul qilish va o'zlashtirish kabi xarakterlovchi belgi va xususiyatlarga ega. Ayniqsa, qaysi sabablarga ko'ra bir til lug'at tarkibidagi so'z ikkinchi bir tilga o'tadi, qanday qilib u qabul qiluvchi til lug'at tarkibiga o'zlashib singib ketadi kabi masalalar bugungi kunda tilshunoslarni qiziqtirib kelmoqda. Masalan:

1. **Interaktiv** (ингл. interaction) 1. fiz..o'zaro ta'sir

2. narsa (voqea, hodisa va sh.k.) ning bir-biriga ta'siri, o'zaro bog'lanishia aloqasi, munosabati, birgalikdagi, ishi, harakati. Masalan, bugungi kunda pedagoglar interaktiv usullardan foydalanib dars o'tishmoqda.

«**Onlayn** (ang.. online, otang.. on line □ »nalinii) □ »liniyada- ulanishga tayyor holatda.

2. **Kreativ**- ingliz tilidan olingan bo'lib, “ijod qilmoq, yaratmoq” degan ma'nolarni anglatadi.

3. **Klaster**- (ингл. cluster —yig'ish, to'plash) - 1. Yig'ish, to'plash, jamg'arish.

4. «**Menendjer**» - ingliz tilidan olingan bo'lib, “mudir, boshqaruvchi” degan ma'noni bildiradi.

«**Bonus**» “мукофот”

5. **Top**- юкори

6. **Dedlayn** (ингл. deadline) —oxirgi, so'nggi muddat

7. **Modem**- Analogli signallarni diskret signallarga o'tkazib beruvchi va aksincha amal bajaruvchi texnik qurilma.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Jumaniyozov»O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari-, Toshkent 1987”

2. Tursunov U., Muhtorov J., Raxmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. □ Toshkent: O'zbekiston, 1992.